



THE IMPORTANCE OF ADMINISTRATIVE PREJUDICE IN THE QUALIFICATION OF CERTAIN CRIMES IN THE FIELD OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY

Kurbonov Anvar

Independent researcher of the Law Enforcement Academy of the
Republic of Uzbekistan

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2024

Accepted: 04th June 2024

Online: 05th June 2024

KEY WORDS

Administrative prejudice,
customs, customs border,
customs control,
administrative offense,
crime, violation of customs
legislation, "E-
ma'muriy ish" system, taxes,
fees.

ABSTRACT

The article reveals the specifics of crimes of violation of customs legislation and tax evasion or fees. The provisions in legislative practice on the importance of administrative prejudice in the qualification of the crime of violation of customs legislation and evasion of taxes or fees are given.

ЗНАЧЕНИЕ АДМИНИСТРАТИВНАЯ ПРЕЮДИЦИЯ ПРИ КВАЛИФИКАЦИИ ОТДЕЛЬНЫХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ В СФЕРЕ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Курбонов Анвар Жамол угли

Независимый соискатель Академии Правоохранительных органов Республики
Узбекистан

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2024

Accepted: 04th June 2024

Online: 05th June 2024

KEY WORDS

Административная
преюдиция, таможня,
таможенная граница,
таможенный контрол,
административное
правонарушение,
преступление, нарушение
таможенного
законодательства,
система "E-ma'muriy ish",

ABSTRACT

В статье раскрыты особенности преступлений нарушения таможенного законодательства и уклонения от уплаты налогов или сборов. Приведены положения в законодательной практике о значении административной преюдиции при квалификации преступления нарушения таможенного законодательства и уклонения от уплаты налогов или сборов.

налоги, сборы.

TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT SOHASIDAGI AYRIM JINOYATLARNI MALAKALASHDA MA'MURIY PREYUDITSIYANING AHAMIYATI

Qurbonov Anvar Jamol o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2024

Accepted: 04th June 2024

Online: 05th June 2024

KEY WORDS

Ma'muriy preyuditsiya, bojxona, bojxona chegarasi, bojxona nazorati, ma'muriy huquqbuzarlik, jinoyat, bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish, "E-ma'muriy ish" tizimi, soliqlar, yig'imlar.

ABSTRACT

Maqolada bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va soliqlar yoki yig'imlarni to'lashdan bo'yin tovlash jinoyatlarining o'ziga xos xususiyatlari bayon qilingan. Qilmishni bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va soliqlar yoki yig'imlarni to'lashdan bo'yin tovlash jinoyatlari bo'yicha malakalashda ma'muriy preyuditsiyaning ahamiyati haqida qonunchilik amaliyotidagi qoidalar keltirilgan.

Tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratish, ishbilarmonlik muhitini yanada kengaytirish maqsadida tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari, shu jumladan tadbirkorlik sohasidagi qonunbuzarliklar uchun javobgarliklar liberallashtirilib, ayrim normalar takomillashtirib kelinmoqda.

Eksportni rag'batlantirish maqsadida import o'rnini bosuvchi tovarlarni ishlab chiqarish, ularni kelgusida xorijiy mamlakatlarga eksport qilish maqsadida ishlab chiqarish texnologiyalari va xom-ashyolarni olib kirgan tadbirkorlik subyektlariga bojxona to'lovlaridan imtiyozlar taqdim etilmoqda va tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning notarif choralari kamaytirilib mavjud tartib-taomillar soddalashtirilmoqda. Tovarlar savdosini tezlashtirish maqsadida eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida sarflanadigan vaqt qisqartirilishiga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan amaliyotga joriy qilinib, sinovdan o'tgan xalqaro standartlar mamlakatimiz bojxona organlari faoliyatiga ham tatbiq qilinmoqda.

Yaratilayotgan imkoniyat va shart-sharoitlarga qaramasdan osongina daromad topishga o'rganib qolgan nohalol tadbirkorlik subyektlari hamda ayrim shaxslar tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarini to'lamasdan yoki iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solib turish uchun o'rnatilgan qonunchilikdagi cheklovlardan qochish maqsadida tovarlarni bojxona chegarasidan noqonuniy olib o'tish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlar hamon sodir etib kelinmoqda. Ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatlar hisobini real vaqt rejimida yuritish hamda ish yuritishni takomillashtirish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar amaliyotida raqamli texnologiyalar joriy qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni, 2020-yil 3-sentyabrdagi "Sud hokimiyati organlari

faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4818-sonli qarori bilan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni elektron ko'rinishda shakllantirish bo'yicha dasturiy ta'minot ishlab chiqish va joriy etish vazifasi belgilab berildi.

Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasining amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni elektron yuritishning huquqiy asoslari belgilandi

Xususan, Kodeksning 269¹-moddasida ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar elektron shaklda shakllantirilishi mumkinligi belgilangan.

Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks 309-moddasiga ko'ra, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ish bo'yicha qaror axborot tizimi orqali elektron hujjat tarzida chiqarilishi va ijro etish uchun yuborilishi mumkin[1].

Aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 4-oktyabrdagi O'RQ-720-son Qonuni qabul qilinishi bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklarni elektron tarzda ko'rib chiqishda tashlangan muhim qadam hisoblanadi.

Ushbu Qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks bojxona sohasidagi ayrim ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni elektron tartibda ko'rib chiqishni belgilovchi 2 ta yangi modda bilan to'ldirildi, 9 ta moddaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Jumladan:

227¹⁰, 227¹³, 227¹⁶ va 227²²-moddalarda nazarda tutilgan ishlar bo'yicha bayonnoma tuzmasdan, huquqbuzar ishtirokisiz jarima solish haqida qaror chiqarish belgilandi;

BQning YAAT orqali qayd qilingan ma'muriy huquqbuzarliklar bojxona organlarining bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshiradigan bosh inspektorlar, katta inspektorlar (inspektorlar) tomonidan ko'rib chiqilishi vakolati berildi;

227¹⁰, 227¹³, 227¹⁶ va 227²²-moddalarda ma'muriy jarimalar miqdori aniq summada belgilandi[2].

Mazkur Qonunni amaliyotga tadbqiq etish bo'yicha Bojxona qo'mitasining ichki idoraviy hujjatlari ishlab chiqilib, bojxona organlarining axborot tizimi Ichki ishlar vazirligining "E-ma'muriy ish" tizimiga ulandi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-iyuldagi "Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishning elektron tizimini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar haqida"gi 431-son Qarori qabul qilingan.

Mazkur qaror bilan "Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida yagona elektron ish yurituv tizimi orqali ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni yuritish tartibi haqida"gi Nizom hamda ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ish hujjatlarini elektron tarzda rasmiylashtirish hamda ularni ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish va ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan davlat organlariga elektron shaklda yuborish tartibi tasdiqlandi[3].

Unga ko'ra, ma'muriy ishlarni elektron shaklda yuritish vakolatli organlarning tegishli tarkibiy bo'linmalari tomonidan ma'muriy ish hujjatlari "E-ma'muriy ish" tizimiga elektron shaklda kiritilishi orqali amalga oshiriladi.

2022-yil 5-yanvardan boshlab ishga tushirilgan mazkur axborot tizimi yordamida 2023-yil 1-aprel holatiga jarima qo'llash to'g'risida jami 7 760 ta qarorlar qabul qilinib, 6,7 mlrd. so'm jarimalar qo'llanildi (BQ YAAT dasturidan olingan ma'lumot).

Tizimning ishga tushirilishi ma'muriy huquqbuzarlik holatlari bo'yicha qog'oz shaklida ish yuritish va ortiqcha bosqichlarni bekor qilib, jarimani joyida solish imkoniyatini yaratdi.

O'z navbatida dasturning imkoniyatlaridan foydalangan holda muqaddam ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxsning unga tayinlangan jazoni o'tab bo'lgan yoki o'tab bo'lmaganligini aniqlash ham mumkin. Bu esa qilmishni jinoyat deb topish uchun muqaddam shunday qilmish uchun ma'muriy jazoga tortilganlik faktini tekshirishda yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 37-moddasi (Tugaganidan so'ng shaxs ma'muriy jazoga tortilmagan deb hisoblanadigan muddat)ga ko'ra, basharti ma'muriy jazoga tortilgan shaxs shu jazoni o'tash muddati tugagan kundan boshlab bir yil mobaynida yangi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etmagan bo'lsa, mazkur shaxs ma'muriy jazoga tortilmagan deb hisoblanadi[1].

Bojxona organlari amaliyotida eng ko'p aniqlanadigan bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va soliqlar yoki yig'implarni to'lashdan bo'yin tovlash jinoyatlarining har ikkalasi bo'yicha ham jinoyat qonunchiligida ma'muriy preyarditsiya nazarda tutilgan. Ushbu turdagi jinoyatlarni malakalashda jinoyat sodir qilgan shaxslarning muqaddam shunday qilmishlarni sodir qilganligi uchun ma'muriy jazoga tortilganligini aniqlash muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 182-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasiga ko'ra "bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni ko'p miqdorda O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish, shunday harakat uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa" – qilmish bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyati hisoblanadi va 182-modda birinchi qismi bilan malakalashga asos bo'ladi[4].

Jinoyat kodeksining 182-moddasi ikkinchi qismida esa bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyatini aybni og'irlashtiruvchi darajada sodir etish belgilari tavsiflangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 20.02.2023-yildagi "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" 2-son qaroriga ko'ra, tovarlar va transport vositalarini belgilangan tartibni buzgan holda bojxona chegarasidan har qanday tarzda o'tkazish qonunga xilof hisoblanadi va ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi[5].

Bu yerda e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihat shundaki qilmishning ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka sazovor qilmish ekanligini ajratib olish lozim. Bu masala haqida Oliy sud plenumi qarorida quyidagilar bayon qilingan:

bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzgan deb topish uchun javobgarlik turi bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazilayotgan tovar yoki boshqa qimmatliklarning miqdori bilan bog'liq bo'lib, bu miqdor ularning huquqbuzarlik sodir etilgan kundagi qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyatining bevosita obyekti tovar yoki boshqa qimmatliklarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali o'tkazishning belgilab qo'yilgan tartibi hisoblanib, bunda tovar yoki boshqa qimmatliklarga nisbatan bojxona to'lovlari mavjud yoki mavjud emasligi ahamiyat kasb etmaydi;

tovar yoki boshqa qimmatliklarni qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan ko'p miqdorgacha o'tkazganlik uchun har doim, shaxs aynan shunday huquqbuzarlik uchun bir yil davomida bir necha marta ma'muriy javobgarlikka tortilganligidan qat'i nazar, ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 182-moddasining birinchi qismi bo'yicha jinoiy javobgarlik tovar va transport vositalarini ko'p miqdorda qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o'tkazganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgan (O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 227¹⁹, 227²⁰, 227²¹-moddalar va 227²²-moddasining birinchi qismi) shaxs ma'muriy jazo qo'llanilganidan so'ng bir yil davomida yana shunday huquqbuzarliklardan birini ko'p miqdorda sodir etgan holdagina kelib chiqadi

Jinoyat kodeksi 182-moddasi ikkinchi qismining "b", "v" va "g" bandlarida nazarda tutilgan kvalifikatsiya belgilari mavjud bo'lganda, jinoiy javobgarlik shaxsning ilgari ushbu harakatlari uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgan-tortilmaganligidan qat'i nazar, bojxona to'g'risidagi qonunchilikning buzilishi faqat ko'p miqdorda bo'lgan holdagina kelib chiqadi[5].

Xorijiy davlatlar qonunchiligida ham bojxona chegarasidan tovarlarni noqonuniy olib o'tish bilan bog'liq qonunbuzarliklar uchun javobgarlikni belgilashda ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyat orasidagi farqni aniqlash uchun tovarlar miqdori alohida ko'rsatilgan.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyatini malakalashda bojxona chegarasidan noqonuniy olib o'tilgan tovarlarning qiymati, shaxs oldin tovar va transport vositalarini ko'p miqdorda qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o'tkazganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortilganligi, jinoyatni sodir etish usuli, jinoyat kim (kimlar) tomonidan sodir qilinganligi ham muhim ahamiyatga ega.

Jinoyat kodeksining 184-moddasi (Soliqlar yoki yig'implarni to'lashdan bo'yin tovlash) birinchi qismiga asosan foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni qasddan yashirishni, kamaytirib ko'rsatishni, shuningdek davlat tomonidan belgilangan soliqlarni yoki yig'implarni to'lashdan qasddan bo'yin tovlashni ancha miqdorda sodir etish, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin ro'y bergan bo'lsa jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 31.05.2013-yildagi "Soliqlar va yig'implarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida" 08-son qarori 4-bandida quyidagicha belgilangan:

Qonunda soliqlar va yig'implarni to'lashdan ancha miqdorni tashkil qilmagan (bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha bo'lgan) miqdorda qasddan bo'yin tovlash yoki birinchi marta ancha (bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha bo'lgan) miqdorda sodir etilganligi uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan MJtK 174-moddasining birinchi va ikkinchi qismlari.

Agar shaxs soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun MJtK 174-moddasining ikkinchi qismi bo'yicha ma'muriy jazo qo'llanilganidan so'ng bir yil davomida shunday qilmishni yana ancha miqdorda sodir etsa, JK 184-moddasining birinchi qismi bo'yicha jinoiy javobgarlik kelib chiqadi.

Shuni nazarda tutish lozimki, agar soliqlarni to'lashdan qasddan bo'yin tovlaganlik natijasida ko'p yoki juda ko'p miqdorda zarar yetkazilgan bo'lsa, jinoiy javobgarlik ma'muriy

preyuditsiyaga rioya qilinmagan holda (ya'ni shaxsning muqaddam soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortilishi talab etilmaydi), tegishlicha, Jinoyat kodeksi 184-moddasi ikkinchi qismining "b" bandi yoki uchinchi qismi bo'yicha kelib chiqadi [6].

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyati va soliqlar yoki yig'implarni to'lashdan bo'yin tovlash jinoyatlarni malakalashda shaxslarning muqaddam shunday qilmish uchun ma'muriy javobgarlikka tortilganligini tekshirish, ushbu turdagi jinoyatlarni to'g'ri malakalashga hamda jinoyatlarni tergov qilishni takomillashtirishga yordam beradi. Bunda yaratilgan dastur imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'z navbatida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida yaratilgan axborot tizimlarini o'zaro samarali integratsiya qilish, xodimlar tomonidan dasturga ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'g'ri kiritib borilishini doimiy nazorat qilish lozim.

Jinoyat qonunchiligini liberallashtirishda ham ma'muriy preyuditsiyadan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi. <https://lex.uz/docs/97664>
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida"gi O'RQ-720-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/5667137>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-iyuldagi "Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishning elektron tizimini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar haqida"gi 431-son qarori. <https://lex.uz/docs/5500086>
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/>
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 20.02.2023-yildagi "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" 2-son qarori. <https://lex.uz/en/docs/-6404212>.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 31.05.2013-yildagi "Soliqlar va yig'implarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida" 08-son qarori. <https://lex.uz/docs/-2212245>